MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev

TIJORAT BANKLARINING TO‘LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

B.B. Xanaliyev
PhD, AT “Aloqabank”

ANNOTATSIYA. Tijorat banklarining to‘lov xizmatlari amaliyotini innovatsiyalar asosida takomillashtirish to‘lov xizmatlari bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Cheklarni konversiya qilish, sof inkasso, banklarning orderli cheklari va to‘lov majburiyatlari kabi innovatsion to‘lov vositalaridan foydalanish to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash, xizmatlar samaradorligini oshirish hamda mijozlarning zamonaviy to‘lov xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirish imkonini beradi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining to‘lov xizmatlari amaliyotini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinib, mazkur yo‘nalishni takomillashtirishning ustuvor jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, to‘lov xizmatlari, innovatsiyalar, akkreditiv, inkasso, chek, to‘lov majburiyatlari, to‘lov vositalari.

АННОТАЦИЯ. Совершенствование практики предоставления платёжных услуг коммерческими банками на основе инноваций является одним из важных факторов повышения их конкурентоспособности на рынке платёжных услуг. Использование таких инновационных платёжных инструментов, как конверсия чеков, чистое инкассо, ордерные чеки банков и платёжные обязательства, способствует обеспечению непрерывности платежей, повышению эффективности обслуживания и более полному удовлетворению потребностей клиентов в современных платёжных услугах. В исследовании проанализированы возможности развития практики предоставления платёжных услуг коммерческими банками Республики Узбекистан на основе инновационных подходов и научно обоснованы приоритетные направления её дальнейшего совершенствования.

Ключевые слова: коммерческий банк, платёжные услуги, инновации, аккредитив, инкассо, чек, платёжные обязательства, платёжные инструменты.

ABSTRACT. Improving the payment service practices of commercial banks through innovation is an important factor in enhancing their competitiveness in the payment services market. The use of innovative payment instruments, including cheque conversion, clean collection, bank order cheques, and payment obligations, contributes to ensuring payment continuity, improving service efficiency, and more fully meeting customers’ demand for modern payment services. The study analyzes opportunities for developing the payment service practices of commercial banks in the Republic of Uzbekistan through innovative approaches and provides a scientific rationale for the priority areas of their further improvement.

Keywords: commercial bank, payment services, innovation, letter of credit, collection, cheque, payment obligations, payment instruments.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan [1]. Bu esa, o‘z navbatida, bank xizmatlarini, shu jumladan, to‘lov xizmatlari amaliyotini innovatsiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Kosoyning xulosasiga ko‘ra, iqtisodiyotdagi to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlashda to‘lovlar ketma-ketligining qaysi turi qo‘llanilayotganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligida mulk egalarining huquqlarini yanada to‘liq ta’minlash zarurati yuzaga keladi, to‘lovlarning kalendar ketma-ketligida esa barcha turdagi to‘lovlarning tengligi ko‘zda tutiladi [2].

A. Kosoyning ushbu xulosasi respublikamiz to‘lov tizimini rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki respublikamizda to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo‘llaniladi.

H. Allenning tadqiqoti natijalari ko‘rsatadiki, elektron to‘lovlardan foydalanish tranzaksiyalar chastotasiga

ta’sir ko‘rsatishi va bir to‘lov vositasining ikkinchisi bilan almashishiga olib kelishi mumkin. Bu esa monetar harakatlar va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi aloqadorlikning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin [3].

D. Kochergin va A. Yangirovaning xulosasiga ko‘ra, “taqsimlangan reyestrlar” texnologiyalarini joriy qilish va ulardan keng ko‘lamda foydalanish to‘lov tizimlaridagi to‘lov, kliring va o‘zaro hisoblashish jarayonlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin, buning natijasida ularning samaradorligi oshishi va hisob-kitob risklari pasayishi mumkin. Markaziy banklarning raqamli valyutalarini muomalaga chiqarish markaziy banklar faoliyatida taqsimlangan reyestrlar texnologiyalarini qo‘llashning nisbatan muhim yo‘nalishi hisoblanadi [4].

A. Gloriozov va D. Mixaylovlarning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklari ko‘pchilik hollarda ta’minlangan akkreditivlardan foydalanish o‘rniga tasdiqlangan rambursli majburiyatni taqdim etadilar. Bunday sharoitda ta’minot qo‘llanilsa, siyosiy riskning turli jihatlarini hisobga olish, shuningdek, qoplash summasini tegishli bankka o‘tkazish masalasini puxta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki hujjatlashtirilgan akkreditivda javobgarlik emitent bank zimmasida bo‘ladi [5].

A. Goroxovning fikricha, to‘lov instrumentlari pul mablag‘lari harakatining algoritmiga ko‘ra kreditli, debetli va oraliq instrumentlarga bo‘linadi. Bunda to‘lov topshiriqnomasi va to‘lov talabnoma-topshiriqnomasi kreditli instrument, to‘lov talabnomasi va chek debetli instrument, hujjatlashtirilgan akkreditiv esa oraliq instrument hisoblanadi [6].

T. Bobakulovning xulosasiga ko‘ra, iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish o‘zaro to‘lovlarning samaradorligini ta’minlash, korxonalarning pul oqimini mustahkamlash va to‘lov qobiliyatini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

F. Axmedovning fikriga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotidagi ta’minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditiv va hujjatli inkasso shakllaridan keng foydalanishga imkon yaratayotgan jihatlar, ya’ni akkreditivlarda to‘lovning to‘liq kafolatlanganligi va hujjatli inkassoda tovar hujjatlarining to‘lov amalga oshirilgandan keyin berilishi tartiblarining O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilishi ularning tashqi savdoga xizmat ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi [8].

Z. Daxova va E. Eneyevaning xulosasiga ko‘ra, elektron pullarning yaratilishi va milliy to‘lov tizimlariga joriy etilishi to‘lov tizimlaridagi jiddiy innovatsion yangilik hisoblanadi. O‘z navbatida, elektron pullar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

– afzalliklari:
- tranzaksiyalarning qiymati past;
- foydalanishning anonimligi;
- barcha operatsiyalarni real vaqt rejimida bajarish imkoniyati.

– o‘ziga xos jihatlari:
- ushbu pullar, asosan, ular emissiya qilingan tizim doirasida ishlaydi;
- mazkur pullardan, asosan, to‘lov vositasi sifatida foydalaniladi va ularning emissiyasi emitent tomonidan kafolatlanadi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining to‘lov xizmatlari amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlarini o‘rganish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlarni yig‘ishda statistik kuzatuv, hujjatlarni o‘rganish va ikkilamchi ma’lumotlarni tanlab olish usullari qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Xususan, tijorat banklarida hujjatlashtirilgan akkreditivlar, bank kafolatlari va boshqa to‘lov vositalarining hajmi hamda tarkibiy o‘zgarishlari yillar kesimida o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, to‘lov xizmatlarida innovatsion vositalardan foydalanish holati tegishli ko‘rsatkichlarning dinamikasi va tarkibiy nisbatlarini tahlil qilish asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda banklarning to‘lov xizmatlaridan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, banklar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:
- to‘lov topshiriqnomasi;
- to‘lov talabnomasi;

- inkasso topshiriqnomasi;
- akkreditiv [10].

Respublika tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyoti xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi. Shu sababli tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish bo‘yicha talablarini xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va xalqaro konvensiyalar talablariga to‘liq rioya qilgan holda shakllantiradilar.

1-jadval


Asakabank tomonidan ochilgan mijozlarning import to‘lovlari bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar va mijozlarning importi bo‘yicha berilgan bank kafolatlari, mlrd so‘m[1]

Ko‘rsatkichlar	Yillar		
	2023	2024	2025
Hujjatlashtirilgan akkreditivlar	3570	5719	2802
Kafolatlar	0,8	0,8	0,4

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki:

– Asakabank tomonidan ochilgan mijozlarning import to‘lovlari bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan yuqori sur’atda o‘sgan, 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan pasayish dinamikasi kuzatilgan;

– Asakabank tomonidan mijozlarning importi bo‘yicha berilgan kafolatlar summasi 2025-yilda 2023-yilga nisbatan pasayish dinamikasini namoyon etgan.



1-rasm. Aloqabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning tarkibi, jamiga nisbatan foizda[2]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki:

– Aloqabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida qoplangan akkreditivlarning ulushi 2023–2025-yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etgan;

– Aloqabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida trattalar asosidagi akkreditivlarning ulushi 2025-yilda 2023-yilga nisbatan yuqori sur’atda oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy tadqiqot natijasida banklarning to‘lov xizmatlari amaliyotini innovatsiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1 Rasm muallif tomonidan Asakabankning moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.
2 Muallif ishlanmasi

– iqtisodiyotdagi to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlashda to‘lovlar ketma-ketligining qaysi turi qo‘llanilayotganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, to‘lovlarning maqsadli ketma-ketligida mulk egalarining huquqlarini yanada to‘liq ta’minlash zarurati yuzaga keladi, to‘lovlarning kalendar ketma-ketligida esa barcha turdagi to‘lovlarning tengligi ko‘zda tutiladi;

– “taqsimlangan reyestrlar” texnologiyalarini joriy qilish va ulardan keng ko‘lamda foydalanish to‘lov tizimlaridagi to‘lov, kliring va o‘zaro hisoblashish jarayonlarini tubdan takomillashtirishi mumkin, buning natijasida ularning samaradorligi oshishi va hisob-kitob risklari pasayishi mumkin;

– to‘lov instrumentlari pul mablag‘lari harakatining algoritmiga ko‘ra kreditli, debetli va oraliq instrumentlarga bo‘linadi. Bunda to‘lov topshiriqnomasi va to‘lov talabnoma-topshiriqnomasi kreditli instrument, to‘lov talabnomasi va chek debetli instrument, hujjatlashtirilgan akkreditiv esa oraliq instrument hisoblanadi;

– ta’minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditiv va hujjatli inkasso shakllaridan keng foydalanish uchun imkoniyatlarni kengaytirish banklarning tashqi savdoga xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi;

– respublika tijorat banklarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish amaliyoti xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi;

– Asakabank tomonidan ochilgan mijozlarning import to‘lovlari bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan yuqori sur’atda o‘sgan, 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan pasayish dinamikasi kuzatilgan;

– Asakabank tomonidan mijozlarning importi bo‘yicha berilgan kafolatlar summasi 2025-yilda 2023-yilga nisbatan pasayish dinamikasini namoyon etgan;

– Aloqabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida qoplangan akkreditivlarning ulushi 2023–2025-yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etgan;

– Aloqabank tomonidan mijozlarning import to‘lovi bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida trattalar asosidagi akkreditivlarning ulushi 2025-yilda 2023-yilga nisbatan yuqori sur’atda oshgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining to‘lov xizmatlari amaliyotini innovatsiyalar asosida takomillashtirish uchun, birinchidan, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning innovatsion shakllaridan (qizil hoshiyali akkreditiv, stend-bay akkreditiv, bek-tu-bek akkreditiv, revolverli akkreditiv) foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali qoplangan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushini optimallashtirish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha to‘lovchining banki kafolatini joriy qilish yo‘li bilan sotilgan tovarlar uchun to‘lovlarning kafolatlanishini ta’minlash zarur; uchinchidan, sof inkassoni to‘lov amaliyotiga joriy qilish orqali “to‘lovlar akseptga qarshi” to‘lov shartidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish asosida naqd pulsiz to‘lovlar hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni: https://lex.uz/docs/-4811025
2. Kosoy A. M. Platejniy oborot: issledovaniya i rekomendatsii : monografiya. – M. : KNORUS, 2012. – S. 31–32.
3. Allen H. Innovations in Retail Payments: E-Payments // Bank of England Quarterly Bulletin. – 2003. – Winter. – P. 77.
4. Kochergin D. A., Yangirova A. I. Sentrobankovskiye sifroviye valyuti: klyucheviye xarakteristiki i napravleniya vliyaniya na denejno-kreditnuyu i platejnuyu sistemu // Finansi: teoriya i praktika. – Moskva, 2019. – № 4. – S. 81.
5. Gloriozov A. G., Mixaylov D. M. Vneshnetorgovoye finansirovaniye i garantiyniy biznes : prakticheskoye posobiye. – M. : Yurayt, 2011. – S. 325.
6. Goroxov A. A. Formi beznalichnix raschetov // Innovatsionnaya ekonomika: perspektivi razvitiya i sovershenstvovaniya. – Kursk, 2017. – № 4 (22). – S. 69–75.
7. Bobakulov T. I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari : iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – B. 22.
8. Axmedov F. X. O‘zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga ko‘rsatadigan xizmatlarini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – B. 21.
9. Daxova Z. I., Eneyeva E. V. Analiz vliyaniya platejnix sistem na bankovskiye innovatsii // Finansovaya analitika: problemi i resheniya. – Moskva, 2014. – S. 39–43.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-sonli “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda 3229-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 13.04.2020. – № 10/20/3229/0455; 07.09.2020. – № 10/20/3229-1/1259.: https://lex.uz/docs/-4790646

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100